

TIQXMMI Buxoro filialida matbuot anjumani tashkil etildi

TIQXMMI Buxoro filiali tomonidan 30.06.2021-yil soat 10:00 da AOKA Buxoro viloyat hududiy boshqarmasi tashabbusi bilan ommaviy axborot vositalari ishtirokida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev raisligida bo'lib o'tgan 2021-yil 16-iyundagi Oliy ta'lim tizimidagi ustuvor vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan videosektor yig'ilishida berilgan topshiriq va vazifalar hamda "TIQXMMI Buxoro filiali: kecha, bugun va istiqbolda" mavzusida matbuot anjumani tashkil etildi.



Matbuot anjumanida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi Buxoro viloyati boshqarmasi boshlig'i G. Samiyeva, TIQXMMI Buxoro filiali direktori Sh.J.Imomov, O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari K. Qurbonov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha direktor o'rinbosari F. Jo'rayev, Xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i K.Sobirov, Moliya va iqtisod ishlari bo'yicha bo'limi boshlig'i Y.Q.Malikov, Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat ishlar bo'yicha bo'limi boshlig'i G. Isoqova, va boshqa bo'lim boshliqlari, filial Matbuot kotibi A. Ca'dullayev hamda bir qator blogerlar ishtirok etdilar.



TIQXMMI Buxoro filiali MATbuot xizmati
TIQXMMI matbuot xizmati